

## SOYA O'SIMLIGI, PARVARISHI VA AHAMIYATI

Mahmudov Rahimjon Sherzod o'g'li

Toshkent davlat agrar universiteti talabasi

Ikromaliyev Asadbek G'anijon o'g'li

Toshkent davlat agrar universiteti talabasi

Ishmamatova Obida Zokirovna

Toshkent davlat agrar universiteti talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqola mamlakatlarda aholining oqsilga bo'lgan ehtiyoji asosan soya donidan olingan oqsil evaziga qondirilishi, soya o'simligini yetishtirish hamda respublikamizning qishloq xo'jaligida hududlar sharoitidan kelib chiqqan holda yekish, parvarishlash va uning yer unumdorligidagi ahamiyati ko'rib chiqilgan. Bundan tashqari, yerni yekishga tayyorlash uslublarini ko'rib chiqilib, soya o'simligini mahsulorligini oshirish yo'llari to'grisida fikr va mulohazalar yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** organik moddalar, mineral o'g'it, kultivatsiya, tuproq, sug'orilgan yer, unumdorlik, kompleks, soya urug'i, soya navlari.

Insonning ovqatlanishi uning yoshi, jinsi va mehnat faoliyatiga bog'liq bo'lgan holda turlicha bo'ladi. Kundalik ovqat tarkibida inson oqsil, uglevodlar, vitaminlar, mineral moddalar va boshqalarni iste'mol etishi lozim. Inson qanchalik turli tuman oziqlansa, uning xayot faoliyati shunchalik faol, organizm esa shunchalik sog'lom bo'ladi. Ayniqsa har birimiz kundalik toliqishlar, depressiyalar, asab-psixologik zo'riqishlar va atrof muhitning salbiy ta'sirlariga uchraganimizda bunday oziqlanishning nechog'lik muhimligini anglaymiz. Ta'kidlash joizki, inson organizmi maromida faoliyat ko'rsatishi uchun oqsilga talab bir kunda uning vaznining xar bir kilogrami uchun 0.7 g dan kam bo'lmasligi lozim. Dunyoning barcha mintaqalarida 60 dan ortiq mamlakatda soya o'simligi yetishtiriladi. Rivojlangan, milliarddan ziyod aholiga ega bo'lgan Xitoyda, ekin maydonlari o'ta taqchil hisoblangan Yaponiya, Koreya va boshqa mamlakatlarda aholining oqsilga bo'lgan ehtiyoji asosan soya donidan olingan oqsil evaziga qondiriladi.

Darhaqiqat, soya ko'plab xususiyatlarga ega o'simlikdir. Uning doni o'z tarkibida 50% oqsil va 28 foizgacha moy borligi uchun o'ta qimmatbaho ekinlar guruhiga kiradi. Soya donidan bugungi kunda xalq xo'jaligi uchun zarur bo'lgan 400dan ortiq turli xil mahsulotlar ishlab chiqariladi. Doni oziq-ovqat sanoatida ishlatiladigan ekologik toza sifatli xomashyodir. Aholi iste'mol qiladigan, o'z tarkibida zararli moddalar saqlamaydigan o'simlik moyining 35 % soya donidan olinadi. Moyi ajratib olingandan so'ng soya izolyati hosil bo'ladi va uning tarkibida oqsil miqdori 75 foizga yetadi. Undan bolalar ovqatlari, pechenyelar, non uchun qo'shimchalar, kolbasa sanoatiga oqsillar, konditer sanoati uchun mahsulotlar (kofeinsiz shokoladlar), kofe va uning o'rnini bosuvchi mahsulotlar tayyorlanadi.

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish uchun soyaning oziq-ovqat sanoati va chorvachilikda ishlatilmayligan chiqindilaridan foydalilanadi. Undan turli maxsulotlar - qurilish plitalari, matolar, sun'iy o'g'itlar, soya moyi ishlab chiqarish qoldiqlaridan sovun,

lak, buyoqlar, rezina maxsulotlari, linoliumlar, eng sifatli va qimmatbaho mashina bo‘yoqlari olinadi.

Tibbiyotda soyadan tayyorlangan maxsulotlarni quyidagi kasalliklarda tavsiya etish mumkin: ateroskleroz, gipertoniya, yurak ishemiyasi, miokard-infarktni o‘tkazgandan keyingi tiklanish davrida, o‘t pufagining surunkali yallig‘lanishi, qandli diabet, surunkali qabziyat, yog‘ bosish, tayanch-xarakat organlari kasalliklari (artrit, artroz), allergik kasalliklar. Bir kilogramm soya donidan insonlar uchun 4 litr, buzoqlar uchun 8 litr sut tayyorlanadi, shuningdek, hayvonlar beradigan barcha mahsulotlarni – sut, qatiq, tvorog, pishloq, go‘sht (qo‘y, mol, tovuq, g‘oz) mahsulotlarini olish mumkin. Aytish mumkinki, xitoylik bir oilaning sigir boqishga imkonni va bog‘lab qo‘yishga joyi yo‘q, ammo soya donidan sut tayyorlab, o‘z oilasi ehtiyojlarini qondiradi.

Chorvachilikda hech bir ozuqa ekini soya kabi ko‘p ozuqa birligiga ega emas. U 100 kg donida 138 ozuqa birligini saqlaydi, ushbu ko‘rsatkich, makkajo‘xori beda va boshqa ekinlarda soyadan ko‘ra past hisoblanadi. Hatto uning 100 kg quruq poyalarida 52 ozuqa birligi mavjud. Soya donining to‘yimligigi jihatidan bironta ozuqa ekini undan ustunlik qila olmaydi. Dunyoda mollarning tez semirishi va parrandalarning kunlik vaznining oshishi uchun albatta ularning kundalik ratsionida soyali mahsulotlar kiritiladi.

Bu o‘simlikning yana bir xususiyati shuki, dukkanlilar oilasiga mansub bo‘lgani uchun o‘zidan keyin tuproqda 55–60 kg sof azot qoldirib ketadi. Bugun mamlakatimizda tuproq unumdorligini tiklash yoki uni bor holida saqlab qolish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. U o‘sib-rivojlanayotgan davrda dalaga katta miqdorda mineral o‘g‘itlarni solishga hojat yo‘q, chunki o‘simlikning o‘zi havodan azotni o‘zlashtirib, foydalanish imkoniga ega.

O‘lkamiz tuproq-iqlim sharoiti soya yetishtirish uchun juda qulay bo‘lib, uni barcha viloyatlar va Qoraqalpog‘istonda asosiy hamda takroriy ekin sifatida yetishtirish mumkin. O‘zbekistonda o‘tkazilgan ko‘plab tajribalarning ko‘rsatishicha, tuproq xarorati 16-18o S gacha qiziganda ekilganda soya urug‘lari bir tekis, qiyg‘os, qisqa davrda unib chiqadi. Takroriy ekin sifatida ekilgan soya suv va shamol eroziyasining zararli ta’sirini kamaytiradi, tuproqni organik moddalar bilan boyitadi va uning ikkilamchi sho‘rlanishi kamayadi. U bug‘doy hosilidan bo‘shagan dalalarga ekilganda ekinzor mikroiqlimi, dala fitosanitar holati, tuproqdagi mikrobiologik jarayonlar yaxshilanadi. Soyadan keyin joylashtirilgan ekinlarning hosildorligi 20–30 foizga ortadi. Respublikamizda takroriy ekin sifatida ekiladigan navlardan o‘suv davri 91–110 kun bo‘lgan navlar ekilgani ma’qul.

O‘lkamiz tuproq-iqlim sharoiti soya yetishtirish uchun juda qulay bo‘lib, uni barcha viloyatlar va Qoraqalpog‘istonda asosiy hamda takroriy ekin sifatida yetishtirish mumkin. O‘zbekistonda o‘tkazilgan ko‘plab tajribalarning ko‘rsatishicha, tuproq xarorati 16- 18 S gacha qiziganda ekilganda soya urug‘lari bir tekis, qiyg‘os, qisqa davrda unib chiqadi. Takroriy ekin sifatida ekilgan soya suv va shamol eroziyasining zararli ta’sirini kamaytiradi, tuproqni organik moddalar bilan boyitadi va uning ikkilamchi sho‘rlanishi kamayadi. U bug‘doy hosilidan bo‘shagan dalalarga ekilganda ekinzor mikroiqlimi, dala fitosanitar holati, tuproqdagi mikrobiologik jaraenlar yaxshilanadi. Soyadan keyin joylashtirilgan ekinlarning hosildorligi 20–30 foizga ortadi. Respublikamizda takroriy ekin sifatida ekiladigan navlardan o‘suv davri 91–110 kun bo‘lgan navlar ekilgani ma’qul.

Yuqoridagi ma'lumotlarga asoslangan holda biz Samarqand viloyati xududida takroriy ekin sifatida xorijiy va mahalliy soya navlarini ekib, ularning bir qator morfologik va qimmatli xo'jalik belgilarini o'rgandik. O'simliklarning turlari va navlari o'zaro irsiy xususiyatlari, vegetatsiyasining davomiyligi, morfofiziologik xususiyatlari va chidamliligi bo'yicha farqlanadi. Demak, soyani O'zbekiston sharoitida yetishtirish bilan muhim masalalar hal etiladi, birinchidan tuproq boyitiladi, ikkinchidan aholi sifatli oqsil va o'simlik moyi bilan ta'minlanadi, sanoat, charvachilik, tibbiyat, texnika uchun turli mahsulotlar tayyorlanadi, yangi ish o'rirlari yaratiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.Sattarova R.Q., Hakimova N.T., Xolmurodov E.A., Allayarov A.N. Umumi fitopatologiya va mikrobiologiya. (Darslik) "Navro'z" nashriyoti. - Toshkent, 2018
2. Rashidov Quvonchbek Turg'unboy o'g'li, & Axmadova Charos Orziqul qizi. (2023). EPHYDRA MACELLARIA EGG SHOLINING ASOSIY ZARARKUNANDASI . TADQIQOTLAR, 27(1),
- 3.Xolmurodov E.A. va boshqalar. Qishloq xo'jalik fitopatologiyasi. (Darslik) "Navro'z" nashriyoti. -Toshkent, 2014.
4. Q.Rashidov "Correlation of water consumption during irrigation of cotton with the dynamics of flood water levels mathematical model" The Computing Science and Technology International Journal (May 2023). – USA, 2023. – Volume 12. – Issue 4. – P. 52-56 (ISSN: 2162-0660)
- 5.N.Xalilov, Z.Artiqov D. Yormatova, M. Hamrayeva, A. Nodirov. Soyaning yangi navlarini parvarishlash bo'yicha tavsiyalar.